

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>S.M.Zokirova</b>	
Hozirgi zamон ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
<b>I.T.Xojaliyev</b>	
Tasvir nutq tipining modal aspekti.....	1319
<b>M.A.Usmanova</b>	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
<b>R.N.Umarova, O.U.Xolmatova</b>	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati .....	1328
<b>O.F.Turdaliyev</b>	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari .....	1333
<b>R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova</b>	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
<b>A.I.Saminov</b>	
Oksymoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida .....	1341
<b>G.Z.Rozikova</b>	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar .....	1346
<b>N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova</b>	
Allegory as a research object of linguistics .....	1351
<b>E.K.O'rinooyeva, G.S.Jo'raboysheva</b>	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanigan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili .....	1354
<b>U.I.Nosirova</b>	
Poetik matnlarning vizual-grafik ifodasi .....	1360
<b>Sh.R.Mo'ydinov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lum" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni .....	1366
<b>Y.I.Karimov</b>	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini .....	1369
<b>G.S.Jo'raboysheva, G.V.Ergashova</b>	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili .....	1373
<b>D.M.Ismoilova</b>	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari .....	1378
<b>G.S.Jo'raboysheva, E.K.O'rinooyeva</b>	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar .....	1383
<b>Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova</b>	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar .....	1388
<b>E.I.Ibragimova, E.K.O'rinooyeva</b>	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalananishi .....	1392
<b>Sh.M.Iskandarova</b>	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar .....	1397
<b>X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova</b>	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi .....	1401
<b>Z.A.Akbarova</b>	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida .....	1406
<b>P.M.Axmadjonov</b>	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi .....	1409
<b>O.Q.Abbozov</b>	
Diniy motivli toponimlar .....	1413
<b>I.T.Axmadjonov</b>	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati .....	1416
<b>M.T.Abdupattoyev</b>	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish .....	1422
<b>A.Mamajonov, O.Q.Abbozov</b>	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi .....	1427
<b>M.T.Abdupattoyev</b>	
Matning statistik tahlili .....	1433



## TASVIR NUTQ TIPINING MODAL ASPKETI

## МОДАЛЬНЫЙ АСПЕКТ ТИПЫ РЕЧИ ОПИСАНИЕ

## MODAL ASPECT TYPES OF SPEECH DESCRIPTION

Xojaliyev Ismoil Tajibayevich

Farg'onan davlat universiteti, tilshunoslik kafedrasasi professori

## Annotation

Mazkur maqolada tasvir nutq tipining o'ziga xos jihatlari til va nutq munosabatlari, tilning ijtimoiy xodisa sifatidagi maqomi, uning mavhum mohiyat sifatida imkoniyatga ega ekanligi hamda bu imkoniyat nutqda namoyon bo'lishi bilan bog'liq holda tajdiq etilgan. Modallik va uning turlari o'rganilan hamda tasyvorda modallikning ifodalanishi ochib berilgan. Tasvir nutqida fe'l mayllari bilan ifodalanuvchi modallik xos emasligi asoslangan. Tasvir nutq tipida modal ma'noni ifodalovchi vositalar aniqlangan va ulaming nutqni tuzilishidagi o'tni ko'rsatib berilgan.

## Annotation

В данной статье рассматриваются конкретные аспекты образного типа речи в связи с соотношением языка и речи, статусом языка как социального явления, его потенциалом как абстрактной сущности и проявлением этого потенциала в речи. Изучается модальность и ее виды, выявляется выражение модальности в изображении. В его основе лежит неспецифичность вещества, выражаемого глагольными наклонениями в образной речи. Выявляются средства выражения модального значения в зрительном типе речи и указывается их место в речевой структуре.

## Abstract

This article examines specific aspects of the figurative type of speech in connection with the relationship between language and speech, the status of language as a social phenomenon, its potential as an abstract entity and the manifestation of this potential in speech. Modality and its types are studied, the expression of modality in the image is revealed. It is based on the nonspecificity of the substance expressed by verbal moods in figurative speech. The means of expressing modal meaning in the visual type of speech are identified and their place in the speech structure is indicated.

**Kalit so'zlar:** til, nutq, til qobiliyati, til birlklari, modallik, modal ma'no, modal so'z, modal yuklama, subyektiv modallik, obyektiv modallik, gap modalligi, tasvir nutq tipi, formal-grammatik vositalar, mikromatn, sabab-oqibat munosabatlari, fe'l mayllari.

**Ключевые слова:** язык, речь, языковая способность, языковые единицы, модальность, модальное значение, модальное слово, модальная нагрузка, субъективная модальность, объективная модальность, модальность предложения, описательные типы речи, формально-грамматические средства, микротекст, причинные связи, времена глаголов.

**Key words:** language, speech, language ability, language units, modality, modal meaning, modal word, modal load, subjective modality, objective modality, sentence modality, descriptive type of speech, formal grammatical means, microtext, causal connections, verb tenses.

## KIRISH

Ma'lumki, til va nutq munosabatlari murakkab kognitiv jarayon bo'lib, unda "til – til qobiliyati – nutq" zanjirida nutqgina moddiy ko'rinishga ega bo'ladi. Til esa ijtimoiy, yashirin, ichki hamda ideal mohiyat sifatida axborotni shakllantirish, saqlash va uzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Til ijtimoiy hodisa bo'lganligi uchun u jamiyat bilan bog'liq holda taraqqiy etadi. Nutq moddiylik, individuallik belgisiga ega bo'lib, til imkoniyatini yuzaga chiqaruvchi hodisa hisoblanadi. Til kommunikativ vazifa bajarishi bilan birga konnotativ belgiga ham ega bo'ladi. Tildagi konnotativ belgi modallik sifatida talqin qilinadi. Chunki modallik bu so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabatini bildirish bilan birga, xabardan ifodalananayotgan mazmunga bo'lgan munosabatini ham ko'rsatadi. Modallik gap modalligi va matn modalligiga kabi tiurlarga bo'linadi. Matn modalligi gap modalligidan farq qiladi va u har bir nutq tipida o'ziga xos namoyon bo'ladi. Ayniqsa, tasvir nutq tipida modallik

o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Tasvir nutq tipida modallikning ifodalanishi boshqa nutq tiplaridan keskin farqlanishi modallik ifodalovchi vositalarda ko'zga tashlanadi. Tasvir nutq tipida neytral obyektiv munosabat mavjud bo'ladi, bunda so'zlovchining ijobjiy yoki salbiy munosabati sezilmaydi, tasvirlanayotgan obyektning belgilari sanab ko'rsatiladi, tasvir nutq tipida gumon, buyruq, iltimos, yalinish, shart ma'nolarini ko'rsatuvchi fe'l mayllari qo'llanmaydi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til nutq orqali o'zining aloqa – aralashuv vositasi sifatidagi funksiyasini bajaradi.[1;255] Bir-birini shartlovchi, bir – biriga bog'liq bo'lgan "til-til qobiliyati-nutq" zanjirida faqat nutqqina tashqi (moddiy) formada (og'zaki, yozma, turli shartli belgililar vositasida) namoyon bo'ladi va bizning sezgi a'zolarimiz tomonidan qayd etiladi (eshitiladi, yoziladi, ko'riladi, o'lchanadi). Til esa yashirin ichki hamda ideal hodisa sifatida anglanadi, tasavvur etiladi.[2;9] Til – potensiya, nuqt – imkoniyat. Shunday ekan, modallik nutq hodisasi sifatida ko'riladi. U nuqtadagini aniq namoyon bo'ladi. Til birliklari nutqqa xoslanadi va aniq bir modal ma'no ifodalaydi.

Nutq tiplari ham so'zlovchining ma'lum maqsadi va nutq obyektining harakteriga ko'ra shakllanadi.[3; .44-49] Shuning uchun modallikni nutqning mazmuniy-funksional tiplari doirasida o'rganish uni to'la va atroficha tadqiqi qilish imkonini beradi. Bu xususida ilk tadiqot O.A.Nechayevaning "Funksional-mazmuniy nutq tiplari" kitobida qayd etilgan.[3]

Tadiqoqtchi tasvir nutq tipi haqida yozar ekan, bu nutq tipiga maslahat, istak, xohish, gumon, imkoniyat, shart, taxmin, ko'rinishidagi modal ma'nolar xos emas, degan fikr bildiradi. Biroq fikrini isbotlashda fomal-grammatik vositalarga tayanadi, subyektiv modallik tasvir nutq tipi uchun xos emas degan xulosaga keladi.[3;44] Tasvir nutq tipiga O.A.Nechayeva pozitsiyasidan turib, modallikka grammatik-semantik kategoriya sifatida yondashilsa, ya'ni matnni gap modalligi darajasidan tekshirilsa, umumiylasosda yuqoridagi fikrlar to'g'ri, biroq tasvir nutq tipi gapdan yuqori birlik bo'lib, unda matn modalligi amal qiladi. Tasvir nutq tipida har bir gap alohida-alohida emas, nutq yaxlit holda, eng kamida ikki gap formasida ifodalangan hukmlarning o'zaro munosabati doirasida taddiqot olib boriladi. Tasvir nutq tipi mazmunan tugal mikromatr sifatida namoyon bo'ladi, shuning uchun unda modallik subyektiv – baholovchi faktor sifatida ko'rindi, ya'ni modallik funksional-semantik kategoriya sifatida yuzaga chiqdi.

Tasvirda predikativlikning ifodalanishi grammatic jihatdan o'ziga xos bo'ladi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, tasvir qayd etuvchi nutq bo'lib, unda tasvirlanayotgan predmetning belgilari mavjud yoki mavjud emasligi tasdiqlanadi.[3;44] Shuning uchun modallik tasvirda o'ziga xos tarzda ko'rindi. Tasvir nutq tipida harakat, sabab-oqibat munosabatlari ifodalanmaydi, unda biror narsa-hodisa ko'rsatiladi. Tasvirlanayotgan predmetga muallif, personaj munosabati o'ziga xos tarzda beriladi. Chunki tasvirda muallif nazarida yoki personaj nigohida narsa-hodisaning o'zi beriladi, tasvirlanayotgan narsa-hodisaning belgilari sanaladi, qayd etiladi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Tasvir nutq tipida vogelikdag'i eng muhim belgilari sanab ko'rsatidadi. Bir vaqtida bo'lgan xodisalar sanaladi:

*Tashqarida sim-sim yomg'ir yog'adi. Tomchilarning shitrlashi ham eshitilmaydi. Ammo yomg'ir yog'yapti, ezib-ezib kuz yomg'iri yog'yapti. Derazalar bug'lanib, xiralashib qolgan, tashqari ko'rinnmaydi. Faqat hovlida simyog'och uchiga ilingan qalpoqda chiroqning aksi olmadek qizarib turibdi. Lampochkaning o'zi emas, xira dog'i ko'rindi.*

(O'.Xoshimov, "Sirli yulduz", 5-bet.)

Turkiy tillarda borliqqa munosabat xilma-xil vositalar bilan ifodalanadi, qaysiki, intonatsiya, fe'l mayllari, so'z tartibi, so'z birikmalari, modal so'zlar va modal yuklamalar bilan [4;96].

Fe'lning birinchi va ikkinchi shaxs formalari kishilarga nisbatan, uchinchi kishi hamda predmetlarga nisbatan qo'llanadi [5;88]. Tasvirda predmetning harakati emas, balki uning o'zi, belgilari ko'rsatiladigan ekan, unda fe'lning birinchi va ikkinchi shaxs formalari nisbatan uchinchi shaxs formalari keng qo'llanadi. Chunki birinchi va ikkinchi shaxs formalari qo'llangan o'rinnlarda harakatbirinchi planga chiqadi, natijada bayon rivoysi нутқ типига хослик касб этади, масалан:

*Ovga borayotgan edim, havo aynidi. "Bahor havosida, bir savalab o'tar", deb ketaverdim. Biroq sal o'tmay yomg'ir shunday quyib berdiki, birpasda ust- boshim ho'l bo'lib, badanimga yopishib qoldi. Shunda, turgan yerimdan ikki yuz qadamcha narida jar va jarga tushaverishda ovchilar, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan qamarcha borligi yodimga tushdi. Jarga yaqinlashishim bilan*

## TILSHUNOSLIK

*shuvoq isi aralash tutun hidi dimog'imga urildi. Qamarga kirdim. O'ttada gulxan yonar, chetroqda oqchil chakmon kiygan, o'rta bo'y bir kishi eshagini ayilini bo'shatardi.*

(SH.Xolmirzayev, "Yo'llar, yo'ldoshlar", 4-bet.)

Odatda, bayon birinchi shaxs tilidan olib borilganda, narsa va hodisaning o'zi yoki belgisi emas, shaxsning harakati birinchi planga chiqadi. Yuqoridagi misolda bayon birinchi shaxs tilidan olib borilmoqda va narsa – hodisaning o'zi yoki belgisi emas, balki harakat oldingi planga chiqmoqdi. Oxirgi gapda uchinchi shaxs formasi qo'lllangani uchun ana shu gapda harakat to'xtaydi, qamar ichidagi belgilari sanab o'tiladi. Bu parcha tasvir nutq tipiga misol bo'la olmaydi. Oxirgi gapda tasvirga xoslik mavjud, biroq bu xususiyat bir gap doirasi bilan cheklangan, shuning uchun tasvir elementi darajasida qolgan, nutq tipi darajasiga ko'tarilmagan.

O'zbek tilida ko'pincha iltimos, yalinish, so'rash kabi modal ma'nolar birinchi va ikkinchi shaxs formalari yordamida yuzaga chiqadi. Bunday modal ma'nolar tasvir nutq tipi uchun xos emas. Agar bunday modal ma'nolar yuzaga chiqsa, nutq rivoya yoki muhokamaga xoslik kasb etadi. Odatda, bunday ma'nolar dialogik nutqda uchraydi:

*Sen kirmay tur! – dedi yana kulib, – Bashor opamdan o'zim suyunchi olaman. – U besh – olti qadam naring bordi-da, to'xtab burildi, – O'qishingni bitirganingda menga jenshen topib berasan, xo'pmi? Hama pochchangga quvvat bo'ladi.*

(O'.Xoshimov, "Ikki eshik orasi", 516-bet.)

Ma'lumki, tasvir monologik nutq tipidir, shuning o'zi ham bunday modal ma'nolarning tasvirida uchrashini cheklaydi. Tasvir nutq tipida gumon, buyruq, iltimos, yalinish, shart ma'nolarini ko'rsatuvchi fe'l mayllari qo'llanmaydi. Tasvirda munosabat aniq momentiga ifodalanadi. Chunki ijro maylidagi fe'llarda harakatning nutq momentiga munosabati bevosita ifodalanadi. Bu mayl formasi ifodalangan zamon absolyut zamon hisoblanadi. [6;476] Bu esa tasvir nutq tipida modallikning bevosita, to'g'ridan – to'g'ri ifodalanishiga mos keladi, masalan:

*Barak ichi yorug'. Uzun shiftning to'rt joyida lampochka bor. Ikki qavat qator – qator so'rilar, so'rilarida har kim o'z uyidan olib kelgan ko'rpa – to'shaklar. Barak o'tasidan qop tutib ikkiga bo'lingan. Bir tomonda o'g'il bolalar yotadi, bir tomonda qizlar. O'ttada uzun yog'och stol. Stolning ikki tomoniga xarraklar qo'yilgan. Bolalar shu stolda ovqatlanishadi. Bir tomonda qizlar tizilib o'tiradi, bir tomonda o'g'il bolalar. Stol yonida Omonulla Rustamovning yig'ma karavoti*

(O'.Xoshimov, "Sirli yulduz", 5-bet.)

Tasvir nutq tipida shart mayli formasining kam qo'llanishining sababi shundaki, bu mayl vositasida modallik ifodalangan joyda sabab- oqibat munosabatlari yuzaga chiqadi, predmet va uning belgilari emas, balki nutqda so'zlovchining predmet va uning belgilari haqidagi fikri yetakchilik qiladi. Bunday holda muhokama nutq tipi shakllanadi, masalan:

*Odam qimmatbaho narsasini yo'qotsa, achinadi. Tuhmatga qolsa, boshini toshga uradi. Qadri yerga urilsa, isyon ko'taradi. Yaqin kishilaridan ayrilsa, dod soladi... Lekin umidingdan ayrlisang g'alati bo'larkan. Hech nimaga, hech kimga, hatto o'z qadrinnga ham achinmaysan. Dod solmaysan. Isyon ko'tarmaysan... Go'yo sen o'lgansan. O'zing o'lib, quruq surating qolgan.*

(O'.Xoshimov, "Ikki eshik orasi", 101-bet.)

Bu gaplarda uning (yaxshi so'zi – I.H.) qaysi so'z turkumiga mansubligi va qanday sintaktik vazifani o'tayotganini, uni qaysi so'z bilan birikib kelayotgani orqali aniqlanadi. Birinchi gapda u otni aniqlab, izohlab kelsa, ikkinchisida fe'l bilan bog'lanib kelgan. Shuning uchun birinchi gapdag'i yaxshi so'zi sifat bo'lib, aniqlovchi vazifasida ishlatalilgan, ikkinchisida esa u fe'l bilan bog'langani uchun so'z turkumlaridan ravishga kiradi va hol vazifasida ishlatalilgan (M.Irsiqulov, "Tilshunoslikka kirish", 86-bet.)

Tasvir nutq tipida, umuman, shart mayli formasi qo'llanmaydi degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Tasvirda ham shart maylini ko'rsatuvchi forma ishtirok etishi mumkin, biroq bunda u shart ma'nosini ifodalamaydi, shart mayli formasi ifodalovchi modallikni ko'rsatmaydi, balki tasvir nutq tipiga xoslanadi, predmetning belgisini aniqlaydi, izohlaydi:

*Tokchada jinchiroq lipillab yonar, xira shu'lada o'tirganlarning turfa soyalari xonaning to'rt tomoniga tushib turadi. Boshlar ham katta- katta, quloqlar uzun – uzun ko'rinar, go'yo bu yerda odamlar emas, alaqanday devlar o'tirganday edi. Ana, Nozim Mehmet gapirar ekan, katta burni oraga suqilib, Lakshmanning kichkina boshiga tegib – tegibketar, xuddi cho'kayotganday tuyuladi.*

*Chap tomondag'i devomi Ho'rdak Buxoroiyning bir quloch keladigan yelkasi egallagandi. Abu Bakir Kalaviy Mavlonzoda soyasi Kamon merganning soyasi bilan qo'shilib ketgan ekan.*

(M.Ali. "Sarbadorlar", 98-bet.)

Tasvir nutq tipida obyektiv modallik ifodalovchi subyektning o'z harakatiga munosabati va subyektiv modallik ifodalovchi so'zlovchining o'z fikriga turlicha munosabatini anglatuvchi modal ma'nolar xos emas. Tasvir nutq tipida, asosan, so'zlovchining reallikka munosabati ifoda etiladi:

Hovli rostdan ham keng – mo'l bo'lib, kirgan odamning ko'kragi to'lib nafas oladi. O'ng qo'lda ayvonli, uch xonali uy, ayvonda alohida – alohida uch eshik ko'rinish turibdi. Ro'parada, ichkariroqda, hovli yuztdan so'li mbog' boshlanadi, balki bog' deyish noo'rindir, har qanday ishkom, olma, nok bor. Chapda mo'jazgina yozgi ayvoncha, quyiroqda esa qo'shni uydan jildirab ariqcha oqib o'tadi. (M.Ali. "Sarbadorlar", 60-bet.)

Tasvir nutq tipida harakat, sabab- oqibat munosabatlari ifodalanmagani uchun va modallikning bevosita ifodalaniishi sababli, obyektiv va subyektiv modallik leksik- semantik vositalar yordamida yuzaga chiqadi. Bunda so'zlovchining qanday so'z tanlagani, u so'zning leksik- semantik ma'nosi tasvirlanayotgan obyektga munosabatini ko'rsatib turadi. So'zlovchi xolis pozitsiyada turganda uning tasvir obyektiga xususiy munosabati sezilmaydi.. u tasvirlanayotgan narsa- hodisani chetda turib kuzatadi. Bunday holatda obyektiv munosabat yuzaga keladi:

*Рўпарада камта боғ, Улкан- улкан дараҳмлар. Осмон ҳам камта, шишадек тиник. Тепадна гала- гала қора қушлар учиб ўтияпти. Ҳаводан турфа кўкамларнинг ҳиди келади. Ҳар ёқдан турли ҳашарот овозлари визиллайди- дизиллади*

(SH.Xolmirzayev, "Yo'llar, yo'Idoshlar", 48-bet.)

Subyektiv modallik – bu, individual- emotsiyal tuyg'u emas. Balki so'zlovchining real borliqqa va bayondan ifodalangan hukmga munosabatidir. Tasvir nutq tipida yozuvchi leksik- semantik vosita yordamida borliqqa o'z munosabatini ifodalydi. Agar bir gap doirasida so'zlovchining individual- emotsiyal tuyg'usi ifodalansa, tasvirda munosabat kamida ikki hukm orqali ifoda etilgani uchun so'zlovchining emotsiyal tuyg'usi individuallik chegarasidan chiqib, uning borliqqa nutq obyektiga munosabatini ifodalash darajasiga ko'tariladi. Bu hodisa, ayni vaqtida, gap modalligi bilan matn modalligini farqlovchi belgi sifatida namoyon bo'ladi:

*Tashqari ham keng, katta daraxtlarga to'la bog'. Yong'oq, shotut, gilos- hammasidan bor. Hovlining ikki tomoni bug'ot imorat, katta chorhari, shifti rangdor toqili, devorlari ganchli mehmonxonalar. Eshiklari va derazalarining eshiklari o'ymakor, pishiq, sahniga chorsi, qadimiy g'ishtilar terilgan dahlizlar, hujralar*

(Oybek, "Ulug' yo'l, 57-bet.)

So'zlovchining subyektiv munosabati tasvirlanayotgan narsa- hodisaningyoki holatning belgilari sanashda qanday so'zlarni tanlashida ham ko'rindi. Bu hol, ayniqsa, potret tasvirida aniq namoyon bo'ladi:

*Saroyning to'rida boshqalarga qraganda ko'r kamroq bir xujra, anavi hujrlarga kigiz to'shlagan holda, bu hujraga qip- qizil gilam, ularda bo'z ko'r palar ko'r ilgan bo'lsa, bunda ipak va adres ko'r palar, nargilarida qora chiroq sasiganda, bu xujrada sham yonadir, o'zga hujralarda yengil tabiatli serchaqchaq kishilar bo'lganida, bu hujaming egasi ham boshqacha yaratilishda: og'ir tabiatli, ulug' gavdali, ko'r kam va oq yuzli kelishgan qora ko'zli, mutanosib qora qoshli va endigina murti sabz urgan bir yigit!*

(A.Qodiriy, "O'tgan kunlar", 5- bet.)

Yuqorida misoldan ko'riniib turibdiki, so'zlovchining munosabati "ulug'", "ko'r kam oq yuzli", "kelishgan qora ko'zli", "mutanosib qora qoshli" iboralari vositasida yozuvchining asar qahramoniga subyektiv munosabati ifodalanoqda. Bu o'rinda yana bir masalaga e'tiborni qaratmoq lozim, ya'ni so'z birikmasi ifodalagan modal ma'no matn ichidagina o'zining tugalligini namoyon qilmoqda. Shuningdek, qarama- qarshi qo'yish vositasida ham subyektiv munosabat yuzaga chiqmoqda. Ikki hujra va hujradagi odamlarning qarama- qarshi qo'yilishi subyektiv munosabatni yanada oydinlashtirmoqda. Demak, muhokamada ikki narsa qiyoslanib, hukm – xulosa chiqarish asosida modal munosabat yuzaga chiqsa, tasvirda qarama- qarshi qo'yish vositasida tasvirlanayotgan narsa – hodisaning belgilari bo'rttiriladi va modallik ifodalananadi.

So'zlovchining subyektiv- ijobjiy munosabati bilan birga subyektiv – salbiy munosabatining ifodalaniishi ham modal ma'noni yuzaga chiqaradi:

## TILSHUNOSLIK

*Bu kishining bittasi: gavdaga kichik, yuzaga to'la, ozroqqina soqol, murtli, yigirma besh yoshlar chamlalik bir yigit bo'lib, Marg'ilonning boylaridan Ziyo shohchi deganning Rahmat otiq o'g'lidi, ikkinchisi: uzun bo'yli, qora, cho'tir yuzli chuvak soqol, o'ttiz besh yoshlarda bo'lgan ko'rimsiz bir kishi edi. Bu yigityaxshigina davlatmand bo'lsa ham, lekin shuhrati nima uchundir boyligi bilan bo'lmay, "Homid xotinboz" deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so'zlashganda uning otiga taqalgan laqabini qo'shib aytmasalar, yolg'iz "Homidboy" deyish ila uni tanita olmaydilar*

(A.Qodiriy, "O'tgan kular", 6-bet.)

Tasvir nutq tipida neytral obyektiv munosabat ham mavjud bo'ladi. Bunda so'zlovchining ijobiy yoki salbiy munosabati sezilmaydi. Tasvirlanayotgan obyektning belgilari sanab ko'rsatiladi:

*Bu chol Hasanali otiq bo'lib, oltmish yoshlar chamasida, cho'ziq yuzli, do'ngroq peshonali, sariqqa moyil to'garak qora ko'zli, oppoq uzun soqolli edi. Soqolining oqligiga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va tusida ham uncha o'zgarish yo'q edi.*

(A.Qodiriy, "O'tgan kunlar", 6-bet.)

Yugoridagi misolda ham, asosan, betaraf munosabat mavjud bo'lib, unda tasvirlanayotgan obyektga so'zlovchining (yozuvchining) munosabati sezilmaydi, balki tasvirlanayotgan qahramon portretiga xos muhim belgilari sanab ko'rsatiladi.

## XULOSA

Demak, tavsir nutq tipida rivoya nutqidagi kabi izchil rivojlanuvchi harakatning ifodalanmasligi, muhokama nutq tipidagi kabi sabab-oqibat munosabatlarining mavjud emasligi unda modal munosabatni ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishiga olib keladi. Gap modalligi va matn modalligining farqlanishi tasvir nutq tipida aniq ko'rindi. Gapda modal munosabat fe'l mayllari, modal so'zlar, modal yuklamalar vositasida ifodalansa, matn modalligida so'zning leksik-semantik strukturasidagina ko'rindi. Chunki tasvir nutqida shart, sabab, buyruq, iltimos, yalinish kabi modal ma'nolar ifodalanmaydi. Chunki unda ko'rsatish, belgilarni sanash muhim o'rinni tutadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Русский язык. Энциклопедия. –М., 1979, с. 255.
2. Нематов X., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Тошкент, 1993, 9-бет.
3. Нечаева О.А. Функционально-смысловые типы речи. –Улан-Удэ, 1974 с.44-49.
4. Зейналов Ф.Р. Категория модальности и способы ее выражения в тюрских языках // Советская тюркология, 1970, № 2, с. 96.
5. Мукаррамов М. Хозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. –Тошкент: "Фан", 1984, 88-бет.
6. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. Морфология. –Тошкент, "Фан", 1975, 476-бет.
7. Hojallyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna, Matn nazariyasining shakllanishi, SCIENCEPROBLEMS.UZ-Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари № 3 (4) – 2024, 351-360-бетлар,
8. 15. Xojaliyev, I., & Dadajonov, A. (2021). Muhokamaning so'zlashuv uslubiga xoslanishiga doir. Студенческий вестник, (19-11), 15-16.
9. Xojaliyev, I. T., & Jamolov, Jumaboy. (2021). About changes in the phonetic structure of words borrowed in Uzbek language from Tajik. ISJ Theoretical & Applied Science, 12(104), 478.
10. Hojallyev, I., & Ahmadjonov, I. (2019). About term and interpretation. Scientific journal of the Fergana State University, 2(1), 127-129.